



# JAMOAT SALOMATLIGI

fjsti.uz  
@ferghana\_medical\_institute  
@farjsti

30-  
iyul  
2022-yil  
shanba

№7 (11)

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ijtimoiy-tibbiy gazetasi

## SO`XDA TIBBIY KO`RIK: "BIZ UCHUN HAR BIR INSON QADRI VA SALOMATLIGI MUHIMDIR"

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021--yil boshida Farg'ona viloyatiga tashrifi davomida bergan topshiriqlari va kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan majlis bayoning 93.2 bandida Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti klinik kafedralarini shahar va tumanlarga birlashtirish va rotasiya usulida aholi salomatlik ko'rsatkichlarini tubdan yaxshilash, jumladan, sog'lom turmush tarzini keng joriy etish, ixtisoslashtirilgan tibbiy ko'rik va konsultatsiyalarni doimiy ravishda o'tkazib kelinmoqda. Institut rektori professor A.Sidikov boshchiligidagi malakali tibbiyot mutaxassislari So'x tumanida joylashgan Tul, Xushyor oilaviy poliklinikalari, Mulgon, Sarikanda, Zang'at oilaviy shifokor punktlari hamda Malbut qishloq mahalla fuqarolar yig'inida navbatdagi tibbiy ko'rik ishlari olib borildi. Qishloqlarda uy-uy yurish orqali

odamlar bilan yuzma-yuz muloqotlar o'tkazildi. Mavjud sohaga oid muammo va kamchiliklarni joyida bartaraf etish choralarini ko'rdi.

—Maqsadimiz, institutning malakali oliy toifali shifokorlari bilan birgalikda 3-4 guruhlariga kiruvchi bemorlarni ajratib olib sog'lomlashtirish va chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklar tashkillashdan iboratdir, — deydi A.Sidikov. — Shifokorlarimiz mahallalardagi poliklinikalarda fuqarolarning salomatligini o'rganib bormoqdalar. Biz uchun har bir inson qadri va salomatligi muhimdir.

Ma'lumot o'rnida, ushbu tibbiy guruhda 15 ga yaqin mutaxassislikdagi oliy toifali shifokorlar aholi salomatligini tiklash hamda hududlarda surunkali davom etuvchi kasallik turlarini o'rganib ularni oldini olish choralarini o'rgandilar.



### Xushxabar

#### SO`XLIKLAR UCHUN 100 TA QO`SHIMCHA GRANT AJRATILDI

So'x tumani yoshlari uchun bakalavriatning kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha davlat granti asosida 500 ta qo'shimcha qabul o'rinlari belgilangan.

Bu o'rinlarning beshdan bir qismi tibbiyot yo'nalishiga to'g'ri kelmoqda.

Ya'ni, so'xliklar uchun Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutiga 100 ta qo'shimcha kvota ajratilgan.



# XALQARO HAMKORLIK

**Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti professor o'qituvchilari Rossiya texnologiyalar universitetiga tashrif buyurishdi.**

Bugungi kunda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi har tomonlama iqtidorli va istiqbolli, ayniqsa, yetakchi xorijiy mamlakatlarning nufuzli ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarining, ilg'or bilim, qimmatli ilmiy va amaliy tajribalari asosidagi bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislar bog'liq bo'lib qolmoqda.

Ta'limga bo'layotgan e'tibor tufayli yoshlar o'rtasida xorijiy mamlakatlarda tahsil olish istagi ham ortib bormoqda. Shu bilan birga mahalliy Oliy ta'lim tizimida ham malakali kadrlarni tayyorlashda amaliy va laboratoriya xonalarini zamon talabi asosida tashkillash va jixozlashga qaratilayotgan e'tibor kunda kun o'z natijasini bermoqda. Respublikamizda yosh olimlarni yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarda (markazlar, universitetlar va boshqalar), shu jumladan, ilmiy laboratoriyalarni jihozlash uchun sotib olinadigan yuqori texnologik asbob-uskunalarda ishlash metodikasini o'zlashtirish uchun qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish tartibi to'g'risidagi chiqarilayotgan qarorlar, nizomlar bunga yaqqol misol bo'la oladi.



Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti "Biofizika va tibbiyot texnikasi" kafedra mudiri M.Mamajonov, kafedra dosenti M.Botirov va "Axborot texnologiyalari va sport" kafedrasini mudiri A.Abdumanonovlar ham Rossiya Federatsiyasi MIREA Rossiya texnologiyalar universitetiga tashrif buyurishdi. Mehmonlarni MIREA Rossiya texnologiyalar universitetining birinchi prorektori Nikolay Prokopov, o'quv ishlari bo'yicha prorektor Andrey Timoshenko, birinchi prorektor o'rinbosari Irina Solunova va bir qator rasmiy vakillar kutib olishdi. Uchrashuv davomida tomonlar fan va ta'lim sohasidagi hamkorlik masalalarini muhokama qilishdi. Uchrashuvdan so'ng delegatsiya a'zolari universitetning Sun'iy intellekt instituti o'quv markazlari va laboratoriyalari: "Industriya 4.0: raqamli robotlashtirilgan ishlab chiqarish" institutlaroro o'quv markazi, "Avtonom intellektual va mul'tiagent robototexnik tizimlar" kafedralararo maxsus o'quv-ilmiy laboratoriyalar, "Mobil robototexnika" hamda texnokovring yoshlar markazlarida bo'lishib, u yerda talabalarni kasbiy mahoratlarini oshirishlari uchun yaratilgan shart sharoitlar bilan tanishdilar.

Shuningdek, delegatsiya a'zolari "Radioelektornika va informatika instituti laboratoriyalari: "Kosmosent" kosmik monitoring markazi; "Radioelektron tenologiyalar", Rossiya ta'lim vazirligi situasion markazlari bilan ham tanishdilar.

Tashrif davomida Sun'iy intellekt instituti direktori A.Romanov va "Biokibernetik tizimlar va texnologiyalar" kafedrasini mudiri S.Pasechnik hamrohligida "Biotexnik tizimlar va texnologiyalar" mutaxassisligi kasbiy modullar o'quv rejalarini, o'quv dasturlarini, ishlab chiqarish va bitiruv malakaviy ishlarini tashkil etish

va bajarilishi, institutning ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liqlik tizimlari, bitiruvchilarni kasbiy mahoratini oshirish uchun tashkil etilgan simulyatsion markaz va o'quv ilmiy-amaliy laboratoriyalarni o'rganishib keyinchalik ushbu loyihalarni hamkorlikda institutimiz "Biofizika va tibbiyot texnologiyalari" kafedrasida "Biotibbiyot muhandisligi" mutaxassislarini tayyorlash jarayonida joriy etish va qo'llash bo'yicha yo'l xaritalari ishlab chiqildi va har ikki tomondan tasdiqlandi.

Yo'l xaritasi doirasida RTU MIREA ning yetuk professor-o'qituvchilari tomonidan onlayn ma'ruzalar, vebinarlar va seminar mashg'ulotlarini o'tishlari, bitiruv malakaviy ishlarga rahbarlik qilishlari, shuningdek, bitiruv ishlarini bajarishda talabalarni RTU MIREAning ilmiy-amaliy laboratoriyalaridan to'liq foydalanish imkoniyatlarini yaratish ham ko'zda tutilgan.

Delegatsiya a'zolari Moskva shahrida joylashgan "Zamonaviy ilmiy- texnologik akademiya» "SNTA" uzluksiz kasb-hunar ta'limi avtonom notijorat tashkiloti faoliyati bilan ham tanishib, zamonaviy tibbiyot texnikalarini ishlatish, ularga servis xizmatlarini ko'rsatish kasbiy tayyorgarlik bo'yicha kadrlarni tayyorlash to'g'risidagi kelishuvlarni amalga oshirdilar. Kelishuvga ko'ra bitiruvchilarni zamonaviy tibbiyot texnikalari ishlab chiqarish firmalarining mahsulotlari bilan chuqur tanishish, ularni o'rnatish, ishlatish va servis xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish va mutaxassislik diplomini bilan birga ushbu firma mahsulotlariga xizmat ko'rsatish va ishlatish huquqini beruvchi qo'shimcha diplomga ega bo'lish imkoniyati yaratildi.

**M.MAMAJONOV,**  
"Biofizika va tibbiyot texnikasi"  
kafedra mudiri.



**TABRIKLAYMIZ!**

Ma'lumki, davolash ishi yo'nalishi 3-bosqich talabasi Obidjon Ibragimov Qozog'iston Respublikasida erkin kurash bo'yicha o'smirlar va yoshlar o'rtasida o'tkazilgan XVIII-ochiq respublika chempionatida 61 kg vaznda II-o'rinni qo'lga kiritgan edi. Shu sababli institut rektori Akmal Sidikov shaxsan o'zi mazkur yutuq bilan O. Ibragimovni qutladi. Unga 3 000 000 so'm mukofotni institut nomidan topshirdi.



Biotibbiyot muhandisligi yo'nalishi 3-bosqich talabasi Abdulaziz Madaminov "Ziyo forum" ilm-fan va ta'lim-tarbiyaviy rivojlantirish fondi tomonidan tashkil etilgan nufuzli tanlovda g'olib hisoblanadi. Qolaversa, u "Ziyolilar" kitobining birinchi sonidayoq Respublikamizning iqtidorli talabalari qatoriga kirdi. Unga ham rektor tomonidan 2 000 000 so'm mukofoti institut nomidan topshirildi.



**E'tirof**



# “SOG‘LOM HAYOT” SAHIFASI

USHBU SONDA TOSHKENT PEDIATRIYA  
TIBBIYOT INSTITUTI BO‘LIM MUTAXASSISLARI  
**S.SAIDXODJAEVA** VA **G.VAFOEVALAR**  
SAHIFAMIZ MEHMONI

## EPILEPSIYA KASALLIGIDA SOG‘LOM OVQATLANISH TAMOYILLARI

### EPILEPSIYA –

turli xil hurujlar va xushdan ketishlar bilan namoyon bo‘luvchi bosh miyaning surunkali kasalligi. Epilepsiya aholi orasida ko‘p tarqalgan. Har 1000 kishidan 5-10 ta odamda epilepsiya kasalligi aniqlanadi. Epilepsiyaning 70 foizi 20 yoshgacha



bo‘lgan davrda rivojlanadi. Kasallanish darajasi erkak va ayollarda deyarli bir xil. Afsuski, bemorlarning bir qismida muntazam dorilar bilan davolanishlariga qaramasdan tutqanoq hurujlari ko‘payib boradi. Ularga dorilar bilan bir qatorda ketogen (yog‘li) parhez tavsiya etish muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashish muolajaning muhim yo‘nalishidan biri hisoblanadi. Uning asosiy mohiyati ko‘p miqdorda yog‘larga boy mahsulotlarni iste‘mol qilib, uglevodlarni cheklashdan iborat. Ketogen parhez asosini tarkibida kam miqdorda uglevod saqllovchi va yog‘lar bilan to‘yintirilgan oziq - ovqat mahsulotlari (qaymoq, sariyog‘, yeryong‘oq yog‘i) tashkil etadi. Ushbu parhez tavsiya etilgan vaqtda uglevodga boy mahsulotlar (makaron, non, ho‘l meva va sabzavotlar) juda kam miqdorda iste‘mol qilinadi. Bu parhez 20-asrning birinchi yarmida paydo bo‘lgan - shifokorlar rasionda yog‘li ovqatlarni ko‘p miqdorda iste‘mol qilish epilepsiya bilan og‘rigan bolalarda tutqanoq hurujlari chastotasini deyarli 90% hollarda kamaytirishi mumkinligini aniqlashdi. O‘sha davrda antiepileptik dori preparatlari bilan davolash hali to‘liq ishlab chiqilmagan va «yog‘li» oziq-ovqat mahsulotlarini iste‘mol qilish kasallik bilan kurashishning samarali usullaridan biriga aylangan.



### RATSION

Uning mohiyati shundaki, oziq-ovqat hazm bo‘lganda, yog‘lar o‘ziga xos metabolik mahsulotlarga - keton tanachalariga aylanadi, ular miyaga kirganda, antikonvulsant ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun dieta “ketogen” deb atalgan. Umuman olganda, ketogen dietani qo‘llash epileptik hurujlar chastotasini kamaytiradi, shuningdek, xotira, diqqat va e‘tiborni yaxshilaydi. Bundan tashqari, ayrim bemorlarda qabul qilayotgan antiepileptik dorilarining dozalarini kamaytirishga imkon yaratadi.

Ketogen parhez taomnomasi. Birinchi uch kun davomida barcha taomlar cheklanib, faqat istalgan miqdorda suv ichiladi. Ammo, ma‘danli va gazlangan suvlar, meva

sharbatlari ichish ta‘qiqlanadi. Bu davrda bemorning xarakat faoliyati kamaytiriladi, ba‘zan esa to‘la yotoq tartibi buyuriladi. Keyingi uch kunda odatdagi ovqatlarni kunlik miqdorining to‘rtidan bir qismi iste‘mol qilinadi. Ular taxminan 1 gramm oqsil va uglevodga, 4 gramm yog‘ nisbatda bo‘lishi kerak. Quyidagi mahsulotlar ovqat rasioniga tavsiya etilmaydi: ho‘l mevalar, non, lavlagi, sabzi, kartoshka, makaron. Yoshi kattalardagi epilepsiya kasalligini davolashda parhezning 4, 5 va 6 kunlari quyidagi taomnoma buyuriladi:

**NONUSHTA:** 2 dona qaynatilgan tuxum (314 kkal), 55 gramm sariyog‘ (374 kkal), 15 gramm yog‘li qaymoq (17 kkal) bilan choy.

**TUSHLIK:** 2 dona sosiska (554 kkal), to‘rtidan bir qism pomidor (4,5 kkal), 1,5 qoshiq mayonez (156,3 kkal).

**Kechki ovqat:** 10 gramm sariyog‘ (74,8 kkal), 1 tovuq ko‘krakchasi (165 kkal), ½ piyola dukkakli loviya (309 kkal),



QUYIDAGI  
MAHSULOTLARNI  
HAM BUYURISH  
MUMKIN:

**NONUSHTA:** oq nondan buterbrod (254 kkal), 30 gramm sariyog‘ (224,4 kkal).

**IKKINCHI NONUSHTA:** 150 gramm yog‘siz go‘shtdan tayyorlangan salat (350 kkal), 30 gramm o‘simlik yog‘i (269,7 kkal), 1 donadan piyoz (43 kkal) va bodring (15 kkal).

**TUSHLIK:** Sariyog‘da qovurilgan va yog‘li smetana qo‘shilgan sho‘rva, 100 gramm sari-yog‘da qovurilgan va pamidor qo‘shilgan qo‘y go‘shiti, qaymoqli choy (807 kkal).

Ikkinchi tushlik: qaymoqli choy va sariyog‘li oq non (467 kkal).

Kechki ovqat: qovurilgan

tuxum (314 kkal), to‘sh (187 kkal), bir dona bodring (30 kkal), 50 gramm oq non (112 kkal). Shu o‘rinda ketogen parhez tartibiga qat‘iy amal qilish kerakligini, aksincha chekinishlar uning samaradorligi yo‘qolishi yoki teskari ta‘sir qilishga olib kelishini eslatib o‘tmoqchimiz.

### KETOGEN PARHEZ

#### PIRAMIDA



Organizmi ovqatlanishning bunday murakkab tizimiga moslashishi uchun ketogen parhezga bir necha kun davomida, asta-sekinlik bilan o‘tiladi. Parhezning dastlabki kunlari holsizlik, charchash hislari kuzatilganligi sababli bemorlar shifokor nazoratida bo‘lishlari kerak. Parhezning mazkur turi faqat shifokor yoki dietolog (parhez ovqatlanish bo‘yicha mutaxassis) vrach tavsiyasiga ko‘ra amal qilinadi. U bolalarning asab tizimi kasalliklari bilan shug‘illanuvchi shifokor ko‘rsatmasi bilan tutqanoq hurujlari kuzatilayotgan hamda dorilar bilan davolash

samarasiz bo‘lgan 1 - 12 yoshgacha bo‘lgan bolalarga buyuriladi. 1 yoshgacha bo‘lgan bolalarga odatda bunday parhez buyurilmaydi, chunki gipoglikemiya ya‘ni qonda qand miqdorining keskin pasayishi xavfi mavjud. Davolash paytida dastlab tanlangan parhez shifokor tomonidan bemorning ahvoriga qarab tayinlanadi. Epilepsiya kasalligi bilan og‘rigan bemorning dietasini tuzishda quyidagi omillar hisobga olinadi: yoshi, vazni, bo‘yi, jismoniy faollik darajasi, tana massasi indeksi va tananing boshqa individual xususiyatlari. Qoidaga ko‘ra, dastlabki ikki oy davomida parhez «sinov davri» dan o‘tadi: ushbu vaqt davomida bemorning ahvolini, undagi o‘zgarishlarni tahlil qilish orqali dietani to‘xtatish yoki davom ettirish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi.

### MUMKIN EMAS





# TELEMEDITSINA

## NIMA?

**Telemeditsina - tibbiy ma'lumot almashish uchun kompyuter va tele- kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Bu dunyodagi eng tez rivojlanayotgan sog'liqni saqlash segmentlaridan biri hisoblanadi. Telemeditsinadan yiliga dunyo bo'ylab taxminan 20% aholi foydalanib keladi. Fanda teletibbiyot «Masofaviy tibbiyot» atamasi bilan ham qo'llanilib keladi.**

Teletibbiyot (telemeditsina) - shifokor va bemorlar o'rtasidagi, hamda shifokor va shifokorlar o'rtasidagi uzoq masofani qisqartirish, vaqtdan sifatli foydalanish va boshqa kerakli tajribalarni almashish maqsadida yuzaga kelgan. Ya'ni tibbiy ma'lumotlarni bemor va shifokorlar bilan almashish hisoblanadi. Hozirgi kunda biz o'z fikrimizda telemeditsina deb faqat zamonaviy texnologiyalarni nazarda tutadigan bo'lsak, noto'g'ri xulosaga kelgan bo'lamiz. Telemeditsinaning texnologiyalari ko'p yillardan buyon insoniyat sog'ligi uchun xizmat qilib keladi. Telemeditsina amalda keng qo'llanilib bizga qadar yetib kelgan. Shuningdek, telemeditsina keng qo'llaniladigan tibbiyot sohalari ham mavjud. Telemeditsina 1905-yilda birinchi elektrokardiogramma bir masofadan ikkinchi masofaga uzatilishi bilan belgilanadi. 1922-yilda Gotenburg universiteti tibbiyot xodimlari tomonidan dengizchilar uchun radio aloqa orqali tibbiy maslahat berilgan. 1960-yilga kelib esa Kanadada inson o'pkasi flyurogrammasi tasviri masofadan uzatilishi telemeditsinaning rivojiga yana bir qadam bo'lgan bo'lsa, 1960-yilda Rossiya va AQShda kosmonavtlarni masofadan telemetrik diagnostika qilish yo'lga qo'yilgan.

Teletibbiyotning tizimlari va yo'nalishlari XXI-asr zamonaviy texnologiya asriga kelib esa telemeditsina turli tibbiyot markazlari ishining ajralmas jarayoniga aylangan, ya'ni bemorlar uchun uyda va ofislarda maslahat berish uchun xizmat qilib kelmoqda. Tibbiyot tizimi axborot texnologiyalari rivojlangan davlatlarda Telemeditsina - masofadan tibbiy yordam hamda tibbiy konsultatsiyalar berish uchun zamonaviy telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan tibbiyot sohasi hisoblanadi. Telemeditsina mustaqil fanlarga tegishli emas, balki jarrohlik va terapevt mutaxassislari uchun ham yordamchi hisoblanadi va xizmat qiladi. Teletibbiyotning tizimi shuki, bemor va shifokor teletibbiyot orqali bemorga

konsultatsiyalar berib boradi. Masofadan bemorni tibbiy monitoringdan o'tkazish vazifalarini amalga oshiradi.

Ikkinchi yo'nalish vazifasi shundan iboratki, shifokorlar jarrohlik amaliyotlarini masofadan o'tkazishi hamda shoshilinch tibbiy maslahat olish va masofadan ta'lim olish va malaka oshirishlari mumkin. Telemeditsinada masofaviy tibbiy maslahat olish va bemorlarning diagnostikasi eng keng tarqalgan va ommabop hisoblanadi. Maxsuslashtirilgan videokonferensiya tizimlari yordamida shifokor-konsultatsiyasi, uning shifokor yordamchisi va bemorning o'zi o'rtasida to'liq formatda audiovizual aloqa o'rnatiladi, bunda ular bir-birlarini ko'rish va eshitishlari, grafik matnli va matnli ma'lumotlarni almashishlari mumkin. Misol tariqasida, bemorning rentgen kartasini ko'rsatish mumkin.

Bugungi rivojlangan tibbiyot sohasida telemeditsina bo'yicha maslahat xizmatlaridan foydalanuvchilar o'zlarining shaxsiy faoliyatlarini yetarlicha kuzatib borishi uchun yetarlicha vaqtga ega emaslar. Ushbu kamchilik aholini tibbiy ko'rik uchun ortiqcha vaqt navbat turishlariga sababchi bo'ladi. Bemorlarni masofadan biomonitring olib borish tizimlari sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislari tomonidan ularni sog'ligi holatini tekshirish va kuzatishda foydalanib kelinadi. Ko'p vaqtlarda terapevtik barcha kerakli terapevtik manipulyatsiyalarni mustaqil ravishda amalga oshirishga qodir bo'lmagan keksa yoshdagi qariyalarni kuzatish uchun masofadan turib mas'ul uydagi shaxs yordamida biomonitring yordamida tekshiruv olib boriladi.

Uy sharoitida telemeditsina muntazam jarrohlik tekshiruviga muhtoj bo'lgan bemorlar uchun (Misol tariqasida yurak qon tomir kasalliklari, surunkali joyidan turolmaydigan og'ir kasalliklar uchun) muhim dolzarb hisoblanadi.

Jarrohlik amaliyotlarini masofadan o'tkazishda telemeditsinaning ushbu yo'nalishi yangi yoki tajribasi kam



mutaxassis tomonidan o'tkazilayotgan jarrohlik amaliyoti yoki bo'lmasa tajribasiz jarrohlar uchun yuqori oliy toifali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladigan jarrohlik amaliyotlari uchun onlayn telemastering uchun qo'llanilib kelinadi. Jarrohlik operatsiyalari vaqtida mutaxassislar raqamli videokameralari yordamida yozilgan turli xildagi tibbiy uskunalar mikroskop, endoskopik qurilmalar va operatsiya jarayonini tasvirlarini bir-birlariga uzatishlari mumkin. Shoshilinch tibbiy maslahat olish: Chuqur va tezkor tajriba talab etiladigan og'ir holatlarda yordamga muhtoj bo'lgan tibbiyot shifokori (operatsiya jarrohligida tegishli malaka, tajribaga ega bo'lgan mutaxassis yo'qligi sababli) shoshilinch videokonferens aloqa seansidan foydalanish mumkin, bu tibbiyot xodimlari va bemorlarni bexuda vaqtini sarflamaslik uchun katta imkoniyatlar kerakli maslahatlarni olishga yordam beradi. Shoshilinch tibbiy konsultatsiya bu - havo sayyohligida, dengiz flotida, uzoq masofali tibbiy yordamdan uzoqda bo'lgan insonlar uchun muhim xizmat qiladi.

Masofadan ta'lim olish va malaka oshirish: Telemeditsinaning yana bir zamonaviy sohalaridan biri masofadan ta'lim olish va tajriba orttirish. Videokonferensiya telekommunikatsiya vositalari orqali efigra uzatilayotgan tibbiy seminarlar, konferensiyalar va ma'ruzalar yuqori darajadagi mutaxassislar o'z bilim va ko'rsatuvlarini jismoniy nazariy ko'rsatuvlarini amaliy yordam bilan almashish imkonini beradi. O'quv ma'ruzalari davomida tibbiyot oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari, tibbiyot muassasalari vakillari, mutaxassislari bilan vidomuloqotni tashkil qilishlari mumkin. Onlayn formatda o'z tajribalarini almashishlari mumkin.

### TELETIBBIYOTDA AXBOROT-MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI:

Multimedia (multimedia) - turli formatdagi ma'lumotlarni ya'ni matn, tovush va grafiklar (jumladan harakatlanuvchi tasvirlar va animatsiyalarni) yaratish, saqlash va ko'paytirish qobiliyatini ta'minlaydigan kompyuter texnologiyalari Multimedia ta'lim, tibbiyot, ishlab chiqarish, fan va san'at va ko'ngilochar maqsadlarda qo'llaniladi.

- Audio axborotni qayta ishlash;
  - Videoma'lumotlarni qayta ishlash;
  - Virtual tashxislash;
  - Multimedia orqali o'quv amaliyotlarini o'tkazish;
  - Axborotlarni kiritish, fayllarni qayta ishlash va uzatish;
- Telemeditsinada axborot texnologiyalari - tibbiy mahsulotlar va asboblarni smartfonlar va kompyuter uchun ilovalar; multimediya vositalari;
- Foto va video yozuvlar (terining shikastlangan joylari, og'iz bo'shlig'i yoki tish, quloq kasalliklari);
  - Tibbiy tadqiqotning radiatsion usullardan olingan natijalarning video tasvirlari yoki fotografiya tasvirlari, elektrokardiogrammalarning exokardiogramma fotosuratlari;
  - Audio yozuvlar (nafas olish tovushlari va boshqalar);
  - Maxsus so'rovnomal yoki interaktiv sun'iy intellekt tizimlari (tibbiy qarorlar qabul qilish uchun o'quv dasturlar) dan foydalanib kelinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishning 2021-2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan dasturni muhim tashabbuslarini qayd etish mumkin. (E-Health-2025) Elektron sog'liqni saqlash tizimini shakllantirish, Axborotlar milliy bazasini ishlab chiqish, tibbiy ma'lumotlar almashinuvi Yagona integratsiya platformasini ishlab chiqish, tibbiy sug'urta milliy tizimini yaratish, tibbiy axborot tizimini joriy qilish, tasvirlar almashinuvi va teleradiologiya tizimini yaratish, tasvirlar almashinuvi va teleradiologiya tizimini yaratish davlat dasturida nazarda tutilgan. Hozirda zamonaviy telemeditsina tizimida Health Level O'zbekiston Respublikasida joriy etilishi ko'zda tutilgan bo'lib E-Health tizimi standartlari sog'liqni saqlash muassasalarida bemorlarni intensiv davolash uchun elektron hujjat almashinuvi yaratilishi ko'zda tutilgan. Ushbu axborot tizimi sog'liqni saqlash muassasalari, nodavlat tibbiy muassasalari va tibbiy mutaxassislar ishini statistik hisoblab borish uchun xizmat qiladi.

**E.VALITOV,**  
FJSTI O'TV bo'lim mudiri.

#### JAMOAT SALOMATLIGI

MUASSIS:  
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Farg'ona viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan 6-sentabr 2021-yil №12-132 raqam bilan ro'yxatga olingan.

BOSH MUHARRIR:  
**Akmal SIDIKOV**  
NASHR UCHUN MAS'UL  
**I.ABDUJABBOROV**  
Qog'oz bichimi: A-3  
Oyda bir marta o'zbek tilida chop etiladi

TAHRIRIYAT MANZILI:  
150105, Farg'ona shahar,  
Yangi Turon ko'chasi, 2-uy  
Tel.: (73) 243-06-62  
(94) 444-91-76

[fmioz@mail.ru](mailto:fmioz@mail.ru) | [fjsti.uz](http://fjsti.uz)



GAZETA BEPUL TARQATILADI

Gazeta «ZAKOVAT NASHRIYOT UYI» MCHJ bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.

**BOSMAXONA MANZILI:**  
Kosonsoy shahri, Chorbog' ko'chasi, 17-uy.  
Bosmaxonaga 30.07.2022 yil, soat 16 00 da topshirildi. Topshirish vaqti: 17:00

Buyurtma: Adadi: 1000